

The Importance Of Words With A Limited Scope Of Use In Increasing The Effectiveness Of Speech

Tajiyeva Zuhra Kamalbayevna

Tashkent State University of Economics

Teacher of the native language and literature of the Academic Lyceum "International Business",
independent researcher

Annotation: This article discusses the concept of proverbs, winged words in the speech process and their difference from other units. Such lexemes in speech also perform an important methodological function. If archaism is used in artistic or popular works to give the speech a sense of irony and satire, then historical lexemes are used to vividly express the reality of the past.

Keywords: Winged words, speech, meaningful, applicable, proverbs, phraseological units, aphorisms.

Nutq Ta'sirchanligini Oshirishda Qo'llanilish Doirasi Chegaralangan So'zlarning Ahamiyati

Tajiyeva Zuhra Kamalbayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"International Business" akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq jarayonida maqollar, qanotli so'zlar tushunchasi va uning boshqa birliklardan farqi borasida so'z yuritiladi. Nutqda bu kabi leksemalar ham muhim uslubiy vazifa bajaradi. Arxaizm badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini berish uchun qo'llansa, tarixiy leksemalardan o'tmish voqeligini jonli ifodalash maqsadida foydalaniladi.

Kalit so'zlar: Qanotli so'zlar, nutq, ma'nodor, qo'llanuvchan, maqollar, frazeologik birliklar, aforizmlar.

Hozirgi o'zbek adabiy tili o'zbek milliy tilining oliy formasi-ishlov berilgan me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo'lgan barqaror shakldir. Demak, u milliy tilga zid qo'yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriroq bosqichi, tartibga solingan bosh ko'rinishi xolos. Dialekt (sheva) - umumxalq tilining ma'lum etnik guruhlariga mansub ko'rinishi. U ilmiy terminologiyada dialektizm deb yuritiladi. Nutq jarayonida maqollar, frazeologizmlar, aforizmlardan o'rinli foydalanish nutqimizning ta'sirchanligini, shiraliligini oshirishga xizmat qiladi. Fikrimizni aniq, lo'nda tarzda yetkazish imkonini beradi. O'zbek tilining izohli lug'atida maqol hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli va hikmatli ibora, gap sifatida ko'rsatiladi. Masalan: Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar. Bunday hikmatli ibora yoki gaplar ixchamlilik, mazmundorlik xususiyatiga ega. Ular avloddan avlodga o'tib boyib kelmoqda. Shunday hollar kuzatiladiki, soatlab gapirish, tushuntirish o'rinda, o'nlab savollarga javob tariqasida aytilgan birgina maqol yoki ibratli fikr yetarli bo'ladi. Har qanday maqol tayyorlik, bir butunlik belgisiga ega bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Bu jihatdan maqollar frazeologizmlarga ham yaqin turadi. Shuning uchun ayrim olimlar maqollarni til birligi sifatida alohida nom-paremalar nomi ostida birlashtiradilar. Paremalar ham shakliy, ham mazmuniy tuzilish nuqtai nazaridan ichki bo'linish xususiyatiga ega. Paremalarining ichki uzvlari butunlik doirasidagina o'z vazifasini bajaradi. O'z

bek tilshunosligida shu kungacha frazeologizmlar, maqollar tadqiqiga oid ko'plab ishlar qilingan. Jumladan, professor Sh.Rahmatullaevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»da o'zbek tilidagi mingdan ortiq iboralar semantik va grammatik jihatdan izohlangan (Rahmatullaev, 1978). Ma'lumki, ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan hamda yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi. Masalan: tomdan tarasha tushganday. Ular nutq jarayonida hosil bo'lmay, balki tilda tayyor holda qo'llaniladi. Ushbu tayyor birliklar o'zlarining semantik butunligi bilan xarakterlanadi. Umuman olganda, frazeologizmlar borasida olimlarning fikrlari turlicha.

Ko'p olimlar frazeologizmlarga barcha barqaror birliklarni kiritisa, boshqalari ma'lum turg'un birliklarni kiritadilar. Ba'zi olimlar frazeologizmlarga maqollar, aforizmlarni kiritisa, boshqalari kiritmaydilar. Biroq, qarashlar qanchalik turli-tuman bo'lishiga qaramay, tadqiqotchilar frazeologizmlarda barqarorlik, ma'no

butunligi, variantlilik, obrazlilik, ta'sirchanlik kabi xususiyatlar borligini ta'kidlaydilar. Aforizmlar (yun. aphorismos - hikmatli co'z) ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap; hikmatli co'zlar. Masalan: Oz demak hikmatga bois, oz yemak sihatga bois. A.Navoiy. Aforizmlar uchun umumlashganlik, lo'ndalik, fikrning tugallanganligi, sayqallanganlik, badiiylik kabi jihatlar xos. Ular asosan odob-ahloqqa oid. Aforizmlarni tushunish oson chunki ular doimo o'z asl ma'nolarida qo'llanadi. Bu jihati bilan ular maqollarga yaqin turadi. Yuqoridagi birliklar qatorida yana bir guruh mazmundor ifodalar nutqimizda faol qo'llanadi. Biz ularni qanotli so'z deb nomladik. Qanotli so'z termini - O'zbek tilining izohli lug'atida termin sifatida aks etmagan. Maxsus ilmiy tadqiq ob'ekti bo'lgan emas. Biz ushbu maqolada qanotli so'zlarning barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda hamda ingliz, fransuz, nemis va rus tillaridagi ko'rinishlardan kelib chiqib qanotli so'z deb nomlashni lozim topdik.

Gay Yuliy Sezar, Napoleon Bonapart kabi tarixiy shaxslar barchaga tanish. Ularning xarakterlarini to'liq o'rgangan xalq nomlarini qanotli so'z sifatida nutqda faol qo'llashadi. Masalan, Napoleon - o'zini hammadan ustun qo'yadigan shaxs, shuhratparast; Sezar - bir vaqtni o'zida bir nechta ishni qila oladigan shaxsga nisbatan qo'llanadi. Chiroyli ko'zlar uchun - ko'plab tillarga kirib borgan va o'zbek tilida ham faol yangraydigan bu ifoda Molerning "Les precieuses ridicules" komediyasidan olingan. Unda personajlardan biri o'zi yoqtiradigan ayoldan ushbu so'zlarni qo'llab noliydi. Bu ibora kinoyali ravishda birortasini xursand qilish uchun, o'zi butunlay xohlamasa ham, biror narsa qilgan holatlarda qo'llaniladi. Ko'rinadiki, ko'plab tillar qatori o'zbek tilida ham faol qo'llanayotgan bu kabi qanotli so'zlar chuqur fikrlarni aniq va obrazli ifodalash, murakkab holat va xarakterlarni lo'nda qilib ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullaev Sh. (1978). O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2006). 1-2 jildlar. -Toshkent: -O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti.
3. Alimuhamedov A. (1975). Antik adabiyot tarixi. -Toshkent.
4. Ovruskiy N.O. (1962 Крылатые латинские изречения в литературе.